

TURKISTON TARAQQIYPARVARI AHMAD ZAKI VALIDIYNING "XOTIRALAR": TARKIBI VA MANBAVIY HAMDA PEDAGOGIK AHAMIYATI.

Annotatsiya: Maqolada Turkiston taraqqiyparvari Ahmad Zaki Validiyning "Xotiralar" asarining tarkibiy tuzilishi, mazmun-mohiyati hamda tarixiy manba sifatidagi ilmiy qimmatini tahlil qilingan. Asarning Turkiston jadidchilik harakati, milliy uygʻonish jarayonlari, siyosiy-ijtimoiy voqealar va maʼrifiy faoliyat tarixini yoritishdagi oʻrni ochib berilgan. Shuningdek, "Xotiralar"ning pedagogik manba sifatidagi ahamiyati, unda ilgari surilgan taʼlim-tarbiya, milliy oʻzlikni anglash, vatanparvarlik, maʼnaviy-axloqiy tarbiya hamda yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashga oid qarashlar ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot natijalari asardan tarixiy-pedagogik tadqiqotlarda va taʼlim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlarini asoslaydi.

Kalit soʻzlar: Ahmad Zaki Validiy, "Xotiralar", Turkiston, jadidchilik, tarixiy manba, pedagogik meros, milliy uygʻonish, taʼlim-tarbiya, maʼnaviy qadriyatlar, tarixiy-pedagogik tadqiqot.

Аннотация. В статье проанализированы структура, содержание и научная ценность произведения «Воспоминания» туркестанского просветителя Ахмада Заки Валиди как важного исторического источника. Раскрыто значение данного труда в изучении истории джадидского движения Туркестана, процессов национального возрождения, общественно-политических событий и просветительской деятельности. Особое внимание уделено педагогической ценности произведения, отражающего идеи образования и воспитания, формирования национального самосознания, патриотизма, духовно-нравственного развития личности и воспитания гармонично развитого поколения. Обоснованы возможности использования труда «Воспоминания» в историко-педагогических исследованиях и образовательной практике.

Ключевые слова: Ахмад Заки Валиди, «Воспоминания», Туркестан, джадидизм, исторический источник, педагогическое наследие, национальное возрождение, образование и воспитание, духовно-нравственные ценности, историко-педагогическое исследование.

Abstract. This article examines the structure, content, and scholarly value of "Memoirs" by the Turkestan reformer Ahmad Zaki Validi as an important historical source. The study analyzes the work's contribution to understanding the history of the Jadid movement in Turkestan, the process of national awakening, socio-political developments, and educational reforms. Particular attention is paid to its pedagogical significance, highlighting the author's views on education, moral upbringing, national identity, patriotism, and the formation of a well-rounded personality. The findings demonstrate the potential of the Memoirs as a valuable source for historical-pedagogical research and for enriching educational practice.

Keywords: Ahmad Zaki Validi, Memoirs, Turkestan, Jadid movement, historical source, pedagogical heritage, national awakening, education, moral upbringing, historical and pedagogical research.

Kirish

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda dunyoda kechayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar yosh avlodning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasi, milliy oʻzligini anglash va mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalasini taʼlim tizimining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylantirmoqda. Ayniqsa, taʼlim tizimining boshlangʻich boʻgʻini jamiyatning intellektual va maʼnaviy salohiyatini belgilovchi muhim bosqich boʻlib, unda faoliyat yuritadigan pedagoglarning kasbiy hamda mafkuraviy tayyorgarligi taʼlim sifati va tarbiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chor Rossiyasi va sovetlar mustamlakachiligi davri tarixi juda keng tadqiq etilgan mavzulardandir. Ushbu tadqiqot ishida biz mana shu davrning ko'plab ijtimoiy-siyosiy voqealarini o'zida mujassam etgan Ahmad Zakiy Validiyning esdaliklari, uning tarixiy ahamiyatiga to'xtaldik. Shu kunga qadar Validiyning ilmiy merosi bir muncha o'rganildi. Uning bevosita yurtimiz tarixiga oid hisoblangan "Xotiralar"i sovetlar davrida ham, mustaqillik yillarida ham tadqiq etildi, turli tillarga tarjima qilindi. Validiyning ilmiy merosini o'rganish, xususan, uning esdaliklarini tadqiq qilish borasidagi Salixov A. G., Xusainov G. B., Isxakov S. .M., Rajabov Q. K., Turdiev Sh., Xolmurodov Sh., Yuldashbaev A. M., Voinov V. M. va boshqalarning asarlarini keltirishimiz mumkin. Lekin, afsuski, bu mualliflarning aksariyati Rossiya va boshqa mamlakat tarixchilari hisoblanadi. Yurtimizda esa Validiy faoliyatini keng miqyosda tadqiq qilayotgan olimlar barmoq bilan sanarli darajada ekanligini hisobga olsak, bu mavzu doirasida hali ko'plab tadqiqotlar olib borish kerakligini taxmin qilishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-pedagogik va tarixiy-qiyosiy yondashuvlar tashkil etdi. Tarixiy-pedagogik yondashuv orqali Ahmad Zaki Validi faoliyatining XX asr boshlaridagi Turkiston va Boshqirdiston ijtimoiy-siyosiy jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi ochib berildi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida uning qarashlari boshqa jadid taraqqiyparvarlari, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov va Ismoil G'aspirali g'oyalari bilan taqqoslanib, umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlandi.

Tadqiqot davomida tahlil va sintez metodlari asosida Ahmad Zaki Validi asarlarida ilgari surilgan milliy davlatchilik, istiqloq, ma'rifat, milliy birlik va vatanparvarlik g'oyalari ilmiy jihatdan umumlashtirildi. Mantiqiy tahlil va konseptual yondashuv vositasida uning siyosiy faoliyati hamda ilmiy qarashlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Validiy ijodining yurtimiz tarixiga oid namunalari ichida eng sermazmun va shoh asari sifatida uning "Xotiralar"ini aytsak xato qilmagan bo'lamiz. Chunki bu asarda Validiyning bevosita avtobiografiyasi berilishi asnosida, uning siyosiy, ijtimoiy va madaniy faoliyati yoritilib, bu faoliyatda Turkiston bilan bog'liq ma'lumotlar batafsil keltiriladi. Avval turk tilida yozilib va nashr etilib, so'ngra boshqa tillarga tarjima qilingan ham mazmun, ham hajm jihatidan salmoqli bo'lgan bu kitobning haqiqiy to'liq nomi "Xotiralar. Turkiston va boshqa sharqiy musulmon turkiylarning milliy o'ziga xoslik va madaniyat uchun kurashlari" deb ataladi.¹

Asar sobiq Ittifoq hududida ilk bor boshqirdchaga o'girilib, "Agidel" jurnalining 1991-1992-yillardagi sonlarida to'liq bosilib chiqdi.² So'ngra u rus tiliga tarjima qilinib, uch qismdan iborat holda nashrga tayyorlandi. Asarning birinchi kitobi 1994-yilda Boshqirdistonning "Kitap" nashriyoti tomonidan nashr etildi.³

Yurtimizda milliy istiqloq shabadalari esa boshlagach, tariximizning noma'lum sahifalarini o'z bag'rida saqlab kelayotgan ko'plab tarixiy asarlarni xolisona tadqiq etish va ularni nashr qilish imkoni vujudga keldi. Vatanimiz tarixining XX asr boshlariga oid sahifalarini yorituvchi Ahmad Zakiy Validiy qalamiga mansub ushbu asarning ayrim boblari "Sharq yulduzi"⁴ jurnalida, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida e'lon qilinib, keng jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otdi, chin ma'noda uning asrimiz birinchi choragida yurtimizda bo'lib o'tgan voqealar haqidagi tasavvurini boyitdi. Adabiyotchi, tarixchi, faylasuf olimlarning, yozuvchi va shoirlarning shu buyuk olimning xizmatlarini munosib baholagan, zo'r minnatdorchilik tuyg'ulariga to'la qator maqolalari turli gazeta va jurnallarimizda chop etildi. Endilikda Zakiy Validiyning ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, ijodiy faoliyati boshqa respublikalarda ham atroflicha o'rganilib, targ'ib qilinmoqda.

Mustaqillik yillarida nashr etilgan Validiyning "Xotiralar"i o'n ikki bo'limdan iborat. Ular quyidagilar:

¹ Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер... Тошкент: Адолат, 1997. –Б. 7.

² Тоған Ахмет-Заки Валиди. Воспоминания//Агидел. 1991. №1; 1992. №6.

³ Тоған Ахмет-Заки Валиди. Воспоминания. Уфа, Китап, 1994.

⁴ Аҳмад Заки Валидий. Хотиралар//Шарк юлдузи. 1993. № 5-6.

1. Oilamizning madaniy aloqalari;
2. 1908-1916-yillar. Ilk ilmiy ishlarim;
3. Turkistonga ilmiy safar;
4. 1916-1918-yillar, siyosiy hayot;
5. Sovetlar bilan o'n besh oy birga ishlash;
6. Turkistondagi kurash;
7. Anvar Posho Turkistonda;
8. Toshkent Kongressi;
9. Eron Xurosonida yetti hafta;
10. Afg'onistonda besh oy;
11. Hindiston – Turkiya;
12. Ovro'pada kechirilgan o'n sakkiz oy.

Validiy o'z "Xotiralar"ining birinchi bo'limi "Oilamizning madaniy aloqalari" deb nomlangan. Bu qismda Validiy oilasining eng yaqin maslakdosh, hamfikir kishilar haqida so'z boradi. Unda yozilishicha, Validiy oilasi bilan aloqa bog'lagan kishilar arab va fors tilini yaxshi biladigan, diniy bilimlari komil, ... so'fiylik tariqatiga mansub bo'lib, madrasa va kitob ko'rgan zotlar edilar.¹ Shuningdek, bu bo'limda Validiy onasi haqida ham ma'lumot beradi. Mazkur bo'limning oxirida Validiyning tahsil olgan yillari va o'sha davrdagi madaniy faoliyati haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Bunda biz Validiyning Rossiya, O'rta Osiyo va boshqa yerlarda chiqqan gazeta va jurnallarni doimiy ravishda mutoala qilib turganligini bilishimiz mumkin. Validiy bu jarayonni quyidagicha xotirlaydi: "xabarlar yozib turishim tufayli ba'zi gazetalarni menga tekin yuborishardi. Masalan, Peterburgdan "Ulfat" hamda arabcha "Al-Talmiz", Qozondan "Bayonul-haq" va "Yulduz", Orenburgdan "Vaqt" va Astraxandan "Edil", Bokudan "Irshod" gazetasi va "Fuyuzot" jurnalini kuzatib borardim".²

"Xotiralar"ning ikkinchi bo'limida Zakiy Validiyning 1908-1916-yillardagi ilmiy va ijtimoiy ish faoliyati haqida so'z boradi. Bu bo'limda muallifning o'sha davrdagi islom olamining G'arb olamidan taraqqiyot borasida orqada qolayotganliklari haqidagi ma'lumotlari e'tiborga loyiqdir. Xususan, o'zining ilk ilmiy faoliyatini Sharq olamining tanazzuliga sabab bo'lgan teokratizmning asl mazmun-mohiyatini o'rganishdan boshlagan, Ahmadzaki, o'sha davrda Osiyoning rivojlanishi uchun qator yangilanishlar zarurligini ta'kidlaydi. Tahsil jarayonida qator olim va muarrixlarning asarlarini chuqur o'rganadi. Marjoniyning XIX asr tarixi voqealarini tanqidiy nuqtai nazardan o'rganish lozimligi, teokratizm (mamlakatni ruxoniy odam boshqarishi) ning zarurligi, millat prinsipining tarixiy ahamiyati haqidagi fikrlari bilan kelishsada, boshqa ayrim fikrlari hayotda va bugungi fanda qo'llab bo'lmas darajada eskirganligini tushunib yetadi.³

Bundan tashqari mazkur bo'limda Validiyning ilk tarixiy izlanishlari, rus sharqshunos olimlari bilan tanishuvlari yuz bergan 1911-1912-yillardagi voqealar, tarixni yanada chuqur o'rganish uchun Yaqin Sharq, Arabiston hamda Turkiyaga borish orzusi bayon qilingan.

Asarning navbatdagi bo'limi "Turkiston safari" deb nomlanadi. 1914-yilda tarixiy, arxeologik va etnografik kuzatishlar olib borish uchun Turkistonga, Farg'ona viloyatiga keladi.⁴ Bu safar davomida u Farg'ona, Samarqand, Buxoro viloyatlarida bo'lib, yetmishdan ortiq qo'lyozma kitoblarni izlaydi. Mamlakat xo'jaligi, tarixi, vasiqalar, Farg'onadagi ko'chmanchi o'zbeklar haqida etnografik ma'lumotlar to'playdi.⁵

Yana bu bo'limda ikkinchi Turkiston safari, Sharqiy Buxoro safari, rus sharqshunoslari bilan hamkorlikdagi faoliyati bayon qilingan.

"Xotiralar"ning to'rtinchi bo'limida Validiyning siyosiy faoliyatini yoritib beruvchi ma'lumotlar o'z aksini topgan. Bunga ko'ra muallifning 1916-1918-yillar davomida Turkiston va Qozog'istondagi siyosiy vaziyat bilan qiziqadi va u yerdagi ko'zga ko'ringan siyosatchilar bilan

¹ Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер... Тошкент: Адолат, 1997. –Б. 20.

² Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер...-Б. 23.

³ Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер...-Б. 27.

⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи: Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. Тошкент: Шарк, 2000. –Б. 203.

⁵ Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер...-Б. 33-34.

doimiy aloqada bo'lib turadi.¹ Ushbu bo'limning ahamiyatli tomoni shundaki, Validiy 1917-yilda Rossiyada ro'y bergan inqilob, uning ahamiyati va yurtimizga ko'rsatadigan ta'siri haqida jonli fikr yuritibgina qolmay, inqilobning Turkiston istiqloli uchun sharoit yaratishini Xudodan yolvorib so'raydi. Masalan, ...ertasiga barvaqt uyg'ondim. Bir oz vaqt o'tib, qurolli askariy to'dalarning tartibsiz ravishda o'tishlarini kuzatib turdim. Shunda "Yo rabbim, shu bilan menga ham, mening millatimga ham biror qutulish yo'lini ochgin".² Bu bo'limda yana Validiyning Rossiya musulmonlarining umum kongressi faoliyati, Toshkentdagi kongress faoliyati, Turkiston milliy sho'rosi va Turkiston muxtoriyatining taqdiri, uning ijobiy ahamiyati xususidagi, Turkiston istiqloli yo'lidagi siyosiy kurash va unda o'lka faollarining bir fikrga kela olmaganliklari xususidagi, o'lkadagi milliy ziyolilar (jumladan, qo'qonlik Ashurali Zoxiriy, buxorolik Mirzo Abdulqodir Muhitdinov va b.) o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'lkadagi bolsheviklar (xususan Nalivkin va Korovichenko) bilan o'tkazilgan muzokaralar, Orenburgdagi faoliyat, Buxoro hamda Xiva bilan aloqalar haqidagi batafsil ma'lumotlar o'rin olgan.

Bizga ma'lumki, Validiyni 1915-yildayoq Ufa musulmonlari 4-Davlat dumasiga o'zlarini vakili sifatida saylashgan edi.³ Xuddi shu davrdan boshlab u Boshqirdiston siyosiy hayotida eng muhim figura sifatida faoliyat boshlaydi. Ya'ni, o'sha 1917-1918-yillarda Boshqirdiston Millat Majlisining deputati, shuningdek, Boshqird Avtonom Sovet Respublikasining rahbari sifatida faoliyat olib boradi. 1919-yilning oxiri – 1920-yilning boshlaridan Validiy RKP (b) ga a'zo bo'ladi va bolsheviklar bilan birgalikdagi faoliyatini boshlaydi. Rossiyaga kelgach, Butunrossiya musulmonlari kongressining chaqirilishida faol ishtirok etadi.⁴ Bu haqida "Xotiralar"da shunday bayon qilinadi: "Fraksiya byurosi 27 martda Yekaterina cherkovi yonidagi ko'chada jylashgan "Peterburg musulmonlarining hayriya jamiyati" binosida Moskvada bo'lib o'tadigan kongressga qancha a'zo va kimlarni chaqirish, reja tuzish to'g'risida fikr olishuv uchun katta yig'ilish o'tkazdik. Unga Ahmet Solihov raislik qildi. Men butun musulmon qavmlari va guruhlarini hisobidan kelib chiqib, vakillar yig'ish uchun olti yuzga yaqin a'zo chaqirishni tavsiya etdim. Rossiya musulmonlarining soni, etnografiyasiga doir ma'lumotlar berdim. Xelsinkida tayyorlab kelgan tavsiyalarimni o'qidim. Ammo Solihov, muharrir Ayoq Ishoqiy va boshqalar federasiya fikri qabul bo'lishidan qo'rqqanlari uchun "johil va g'ofil insonlarni nega chaqiramiz, vakillarni ko'proq Qozondan chaqiraylik, yarmidan ko'prog'i ular bo'lsin", dedilar. Menga so'z bermaslikka harakat qildilar. Ammo men ish shu tomonga qarab ketadigan bo'lsa, butun islom doiralari xat yozib, ahvolni bildirishimni aytdim. Kun bo'yi va kechasi bilan to'xtovsiz xat yozib, tarqatdim. Bokuga, Muhammad Amin Rasulzodaga yozdim, Turkiston, Qozog'iston va Boshqirdiston Muxtor jumhuriyatlarini tuzish rejalarini jo'natishni hamda Moskva, Toshkent kongresslariga Ozarbayjon federalistlaridan vakillar yuborishni iltimos qildim. Boshqirdlarni, qozoq va o'zbeklarni da'vat etish uchun 28 martda Toshkentga jo'natdim...".⁵

Asarning bu qismida yana Turkiston muxtoriyati va unga oid me'yoriy hujjatlari qanday qabul qilangani haqidagi muallifning fikrlari berilgan. Lekin muallifning ma'lumotlari asosan 1914-yilning bahorida Turkistonda yuz bergan siyosiy jarayonlarga taaluqli bo'lib, unda Turkiston Muxtoriyatining e'lon qilinishi, hukumat tarkibi va boshqalar xususida so'z bormaydi. Shuning uchun asarning bu qismini tanqidiy va boshqa manbalar (masalan arxiv hujjatlari)ga qiyosan o'rganish talab etiladi.

Zakiy Validiyning 1919-1920-yillardagi siyosiy faoliyati asarning "Sovetlar bilan o'n besh oy birga ishlash" nomli qismida o'z aksini topgan. Bunda 1917-yil voqealaridan keyin Turkistondagi ayrim ziyolilar singari muallif ham bolsheviklar bilan yaqinlashishga va ular bilan hamkorlik ishlash asnosida Turkistonning hur kelajagini ta'minlashga harakat qilganini, aniqrog'i Validiy ham dastlab bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelishi mamlakatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi deb, umid qilganini ko'rishimiz mumkin. Bu haqida muallif shunday xotirlaydi: "Boshqirdiston ichki hamda iqtisodiy ishlarda tamomila mustaqil, boshqird

¹ Ахмад Закий Валидий Тўғон. Бўлингани бўри ер...-Б. 42.

² Ўша жойда.

³ Исхаков С.М. Ахмед-Заки Валидов: новейшая литература и факты его политической биографии// Вопросы истории. № 10. 2003. –С.147-148.

⁴ Там же.

⁵ Бўлингани бўри ер...-Б. 43.

qo'shinlari sovet qo'mondonligiga bo'ysunadi, lekin butun ichki hayotini o'zlari belgilaydilar. Jumhuriyatda kommunizm qurish shart emas".¹ Lekin asarda bu umidlarning amalga oshmasligi sal keyinroq ma'lum bo'ladi. Ufa Soveti raisi mutaassib kommunist Elsin bu shartlarni qabul qilmaydi.²

Asarning mazkur qismida Validiy hayotining eng sermazmun va serqirra taraflari namoyon bo'lgan 20-yillar davri o'z aksini topgan. Unda muallif Boshqirdistonda avtonomiya tashkil qilish yo'lida amalga oshirgan ishlari bayon qilinadi.

Mazkur qismda Validiyning bolsheviklar bilan murosaga kelishuvi va undan o'z yurti ozodligi yo'lida foydalanishga intilishi ham o'z aksini topadi. Buni biz "Sovet frontiga o'tish" qismida o'qishimiz mumkin. "Xotiralar"ning ushbu qismida yana Validiyning Lenin va Stalin bilan birga olib borgan siyosiy hamkorligi, Moskvadagi faoliyati, so'ng vatanga qaytish va Qozog'iston bilan Turkistonni birlashtirish yo'lidagi sa'y harakatlari va nihoyat, Lenin bilan Turkistondagi milliy masala borasidagi bahslari o'z aksini topgan.

"Xotiralar"ning navbatdagi bo'limi muallifning Turkistondagi milliy ozodlik kurashidagi faoliyatini aks ettiradi. U "Turkistondagi kurash" deb nomlanadi. Asarning bu qismi to'raligicha Turkistonda sovet rejimiga qarshi ko'tarilgan qurolli harakat, uning borishi, rahbarlari (ya'ni qo'rboshilar), ularning faoliyat maydoni, kurash usullari, o'zaro aloqalari va boshqalarni aks ettirishga bag'ishlangan. Shuningdek, asarning bu bo'limida Validiyning Xorazm, Buxoro, Farg'ona va Turkman istiqlolchilari bilan olib borgan hamkorligi, ularga bergan yordami bilan birga Turkiston milliy ozodligi uchun kurashayotgan el farzandlarini siyosiy jihatdan birlashtirish, buning uchun esa "Erk" deb nomlangan partiyaning dasturini ishlab chiqilishi borasida ham so'z yuritiladi.

Ushbu bo'limning mantiqiy davomi "Anvar Posho Turkistonda" deb nomlangan keyingi bo'lim hisoblanadi. Unda Anvar Poshoning Turkistonga kelishi, bu yerdagi ozodlik uchun kurashayotgan xalq farzandlari bilan aloqa bog'lashi, ikki o'rtadagi tushunmovchiliklar, bu ishga Moskvaning aralashuvi, Anvar Posho va Validiyning "bosmachi"lar safiga o'tishi hamda ularning harbiy harakatlardagi ishtiroki va nihoyat poshoning o'ldirilishi tafsilotlarini o'qishimiz mumkin.

Asarning keyingi bo'limiga "Toshkent kongressi" deb nom qo'yilgan. Bunda "bosmachi"lar bilan hamkorlikdagi faoliyat jarayonida amalga oshirilgan siyosiy ishlar, yashirin hayot kechirish davri, uning sabab va oqibatlari, Toshkentdagi tarixiy obidalarni o'rganishi, Rudzutak bilan siyosiy kurash, Turkiston birligi tashkilotining faoliyati, bir necha kongresslarini tashkillash, Lenin bilan bahs, unga yozilgan xatlar bayoni, va nihoyat, Turkistonni yuksaltirishning eng asosiy omillari xususidagi fikrlar bayon qilingan.

Asarning "Eron Xurosonida yetti hafta" deb nomlangan qismida Validiyning Eronga borishi va u yerda qisqa vaqt yashab, faoliyat ko'rsatishi haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Bu bo'limda muallifning Eronda turib Turkiya hukumati bilan hamkorlik qilish, turk elchisi bilan olib borilgan muzokaralar berilgan. Turkiya elchisi bilan uchrashuv natijalari bayon qilinib, unda turk hukumati Validiyni sovetlar bilan aloqani uzmaslikka da'vat etganligi qayd qilinadi.³

Eronda biroz vaqt yashagandan so'ng Ahmad Zakiy Afg'onistonga ketadi u yerda Turkiston Milliy birligi tashkiloti rahbarlari bilan Turkiston ozodligi masalasida fikrlashadi. Shuningdek, Afg'oniston va Rossiya munosabatlari haqidagi fikrlarini bayon qilib, ularni Rossiyaning Afg'onistonga nisbatan siyosati uni bosib olish ekanligini hukumat rahbarlariga bildiradi. Shu yerda turib Farg'ona istiqlolchilarining rahbari Shermuhammadbek bilan xat orqali aloqa bog'laydi. Ular yurt ozodligi borasida o'zaro tajriba almashinadilar. Shu vaqtda Afg'onistonning mustaqilligini qarshi oladi va afg'on xalqini xursandchiligiga sherik bo'ladi. Bu voqealarning hammasi asarning "Afg'onistonda besh oy" deb nomlangan qismida aksini topgan.

Validiy Afg'onistonni tark etib Hindistonga, so'ng yana Turkiyaga boradi va u yerlarda bir muncha muddat yashaydi. Bu davr xotiralari asarning "Hindiston-Turkiya" qismiga jo bo'lgan.

Turkiyadan so'ng bir yarim yil mobaynida Validiy Yevropada yashaydi. U yerdagi ko'zga ko'ringan olimlar bilan hamkorlik qiladi. Venada ilmiy faoliyat olib borib doktorlik ishini

¹ Бўлинганни бўри ер...-Б. 57.

² Бўлинганни бўри ер...-Б. 57.

³ Бўлинганни бўри ер...-Б. 210.

yoqlaydi. Bularning barchasi "Xotiralar"ning oxirigi "Ovro'pada kechirilgan o'n sakkiz oy" qismida bayon qilingan.

Validiyning Boshqirdiston va Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatini ochib beruvchi uning "Xotiralar" asari nafaqat avtobigrafiq, memuar, balki tarixiy manba sifatida ham katta ilmiy qimmatga egadir. Bu asarni mutolaa qilar ekanmiz, Turkiston tarixining XX asrning birinchi yarmi davri ko'z oldingizdan kinotasmadek o'tadi. O'sha davrning siyosiy va ijtimoiy holati, milliy bobolarimizning Turkiston ozodligi yo'lida olib borgan kurashi tarixini yanada aniqroq tasavvur etish, ko'plab milliy ziyolilarimizning insoniy fazilatlarini bilib olish mumkin bo'ladi. Lekin asarni tanqidiy ruhda o'rganish kerak albatta. Chunki Validiy o'zi yashab faoliyat ko'rsatgan davr siyosiy va ijtimoiy hayotiga baho berishda o'z dunyoqarashi va nuqtai nazaridan kelib chiqqan va ayrim voqea hodisalarni baholashda kamchiliklarga ham yo'l qo'ygan. Xulosa sifatida aytish mumkinki, asarni diqqat bilan o'qish, eng avvalo, tariximizni yanada yaxshiroq bilib olishga, vatan ozodligi yo'lida kurashgan ota-bobolarimizning shaxsiyatini yaqinroqdan bilib olishga imkoniyat yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Validiyning Boshqirdiston va Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatini ochib beruvchi uning "Xotiralar" asari nafaqat avtobigrafiq, memuar, balki tarixiy manba sifatida ham katta ilmiy qimmatga egadir. Bu asarni mutolaa qilar ekanmiz, Turkiston tarixining XX asrning birinchi yarmi davri ko'z oldingizdan kinotasmadek o'tadi. O'sha davrning siyosiy va ijtimoiy holati, milliy bobolarimizning Turkiston ozodligi yo'lida olib borgan kurashi tarixini yanada aniqroq tasavvur etish, ko'plab milliy ziyolilarimizning insoniy fazilatlarini bilib olish mumkin bo'ladi. Lekin asarni tanqidiy ruhda o'rganish kerak albatta. Chunki Validiy o'zi yashab faoliyat ko'rsatgan davr siyosiy va ijtimoiy hayotiga baho berishda o'z dunyoqarashi va nuqtai nazaridan kelib chiqqan va ayrim voqea hodisalarni baholashda kamchiliklarga ham yo'l qo'ygan. Xulosa sifatida aytish mumkinki, asarni diqqat bilan o'qish, eng avvalo, tariximizni yanada yaxshiroq bilib olishga, vatan ozodligi yo'lida kurashgan ota-bobolarimizning shaxsiyatini yaqinroqdan bilib olishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2022.
3. Аҳмад Заки Валидий. Хотиралар//Шарқ юлдузи. 1993. № 5-6.
4. Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлинганни бўри ер: Туркистон халқларининг миллий мустикаллик учун кураши тарихидан: ХОТИРАЛАР// Бошқирд тилидан Ш. Турдиев тарж. Китобнинг айрим қисмларини Ш. Холмурод таржима қилган. Т., 1997.
5. Гилязов И. На другой стороне. Казань. 1998.
6. Ражабов Қ. Фарғона водийсида истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Т., 2015
7. Салихов А. Г. Научная и общественно-политическая деятельность Ахметзаки Валидова в 1908-1920 гг. М., 1991.
8. Чокаев М. Национальное движение в Средней Азии. В кн.: Гражданская война в России: события, мнения, оценки. М. 2002.
9. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т. II. Тошкент, 2001.
10. Ўзбекистоннинг янги тарихи: Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида. Иккинчи китоб. Тошкент: Шарқ, 2000.